




# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022- YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 79-223-33-29**

***www.navstat.uz***



2022- yil yanvar-avgust oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 55 854,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,6 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 45 070,8 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 80,7 % ni tashkil etdi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 33,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 25,5 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 2,0 %, ga oshganidir.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 3,2 % ga pasayish kuzatildi.


### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 562,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-avgust oylarida



2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45 070,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,7 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,5 % (7,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,1 % (85,6 %) va quyi texnologiyali – 6,2 % (6,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,8 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 77,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 75,6 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,3 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 93,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,5 % (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 86,5 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 532,3 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 125,8 % ga o'sgan), 167,1 ming tonna azot mochevina (karbamid) (145,1 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (137,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Portlandsement, ming tonna.	2 552,4	2 034,1	- 518,3
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	115,2	167,1	51,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	41 827	40 947	-880
Sirka kislotasi, tonna.	3 056	2 749	-307
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	106,6	115,9	9,3
Suvsiz ammiak, ming tonna.	423,1	532,3	109,2
Kalsiy xlorid, ming tonna.	2,2	3,0	0,8
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	3 377,7	4 006,3	628,6

2022- yil yanvar-avgust oylarida  
Kislorod ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yil yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 115,9 ming m<sup>3</sup> kislorod ishlab chiqarildi. Kislorod ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga ko'paygan.



Argon ishlab chiqarish sanoati


Viloyatimizda 2022- yilning yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 83,7 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 (m) ga ko'paygan.



2022-yil yanvar-avgust oylarida


### Azot ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-avgust oylarida jami 479,2 ming m<sup>3</sup> azot ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,6 (m) ga ko'paygan.



### Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-avgust oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 4 006,3 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,6 % ga ko'paygan.





### Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 76,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 2,6 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 75,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 3,5 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 34 090,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 70,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 385,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 224,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 128,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 75,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 817,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 108,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 639,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 157,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,4 % ni, fizik hajm indeksi 119,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 787,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 187,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 33,4 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7 205,7	7 649,8	444,1
Issqlik energiyasi, ming gkal	2 831,6	3 107,1	275,5

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-avgust	2022-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	41 880,3	42 894,0	1 013,7
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	30 297,4	43 269,9	12 972,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 142,8 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 102,4 % ni tashkil etdi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 908,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-avgust oylari mos davriga nisbatan 109,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari



2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 1 192,3 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,6 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Navoiy shahrida (111,8 %), Karmana tumanida (108,0 %), Qiziltepa tumanida (107,5 %) va Navbahor tumanida (107,4 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

#### Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 41,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 59,0 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 42,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 57,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi.







### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 24,2 %, shuningdek, Navoiy shahri 22,2 % ni, Qiziltepa tumani 13,5 % ni, Xatirchi tumani 12,1 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishi-ning viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 27,5 %, shuningdek, Navoiy shahri 20,3 % ni, Xatirchi tumani 11,8 % ni, Navbahor tumani 9,7 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 25,0 % ni va Qiziltepa tumanida 20,9 % ni tashkil etdi.

#### Navoiy viloyati

921,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-avgust

1 081,3 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-avgust

1 192,3 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-avgust



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

41,0 %

2020- yil


103,5 %

2021- yil

109,2 %

2022- yil

106,6 %




o'sish sur'ati

mlrd. so'm





### Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari



Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 85,3 % ni, shuningdek, Karmana tumaniga 9,7 % ni hamda Qiziltepa tumaniga esa 1,6 % ni tashkil etdi.



### Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 3 860 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 817 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,2 %) Navoiy shahriga, 645 tasi (16,7 %) Karmana tumaniga, 478 tasi (12,4 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



 yangi tashkil etilgan  
 faoliyat yuritayotgan